XALQ DEPUTATLARI SHEROBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-18-166-8-119-K/25 Sherobod tumani

Sherobod tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-17-173-8-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Surxondaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 22-13-04/143-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Sherobod tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-17-173-8-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Sherobod tuman byudjetining 2026-yilgi daromadlari

134 mlrd. 463 mln. 910 ming so‘m va xarajatlari esa **134 mlrd. 463 mln. 910 ming so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Sherobod tuman byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **354 mln. 140 ming so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman byudjeti daromadlarining 2026 yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman **mahalliy budjeti xarajatlarining 2026-yil uchun asosiy ko‘rsatkichlari** 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 mlrd. 671 mln. so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (U.Xamrayev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Shafiyev), tuman soliq inspeksiyasi (B.Akramov) bilan birgalikda 2026- yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Sherobod Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari doimiy komissiyasi (A.Choriyev) hamda tuman hokimining moliya-

iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (U.Xamrayev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **ALIMOV USMON IBROXIMOVICH**

Xalq deputatlari Sherobod tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-166-8-119-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Sherobod tumanining daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz koʻrsatkichlari

ming soʻmda

№	Daromad turlari	Jami prognoz
1	QQS soligʻi	417 340
2	Foyda soligʻi	218 700
3	Aylanmadan olinadigan soliq	5 651 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	36 629 500
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olingan daromadlari boʻyicha toʻlanadigan daromad soligʻi	785 000
6	Aksiz soligʻi	
	shu jumladan:	
	Yakuniy isteʼmolchilarga benzin, dizel yoqilgʻisi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz soligʻi	
	Alkogol mahsulotlari	
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 954 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soligʻi	11 835 000
9	Jismoniy shaxslar yer soligʻi	28 449 000
10	Yuridik shaxslar yer soligʻi	38 888 000
11	Qurilish materiallari boʻyicha yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq	1 200 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 40 1400
	Maʻlumot uchun	
	Qishloq xoʻjaligi korxonalari suv soligʻining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	2 537 600
13	Davlat ulushi boʻyicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	
14	Davlat boji	327 570
15	Yigʻimlar	163 100
16	Jarimalar	294 300
17	Davlat mulki boʻyicha ijara toʻlovlari	250 000

	JAMI:	**134 463 910**

Sherobod tuman mahalliy budjeti xarajatlarining 2026-yil uchun asosiy koʻrsatkichlari

ming soʻmda

	Koʻrsatkichlar	**Jami xarajat**
	Xarajatlar - jami	**134 463 910**
1	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**49 484 278**
	shu jumladan:	
1.1	Maorif	40 882 820
	- maktabgacha taʼlim	22 860 479
	- umumiy taʼlim	18 022 341
	- kadrlar tayyorlash	0
1.2	Madaniyat	3 200 694
1.3	Sport	5 236 113
1.4	Fan	0
1.5	Fuqarolarga yetkazilgan zararni koplash	0
1.6	Ijtimoiy koʻnikma markazlari	164 651
2	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**25 957 134**
	shu jumladan:	
2.1	Obodonlashtirish	19 410 029
2.2	Koʻp kvartirali uylardagi lift uskunalarini taʼmirlash va yangilash	0
2.3	Issiqlik taʼminot korxonalariga subsidiyalar	0
2.4	Suv xoʻjaligi vazirligi tashkilotlari	2 175 405
2.5	Fermerlar buxgaltenriyasini saqlash xarajatlari	742 469
2.6	Veterinariya qoʻmitasi (laboratoriya)	528 164
2.7	Sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	0
2.7	Avtobus yoʻnalishlarini subsidiyalash	0
2.8	"Mahalla budjeti" jamgʻarmasi mablagʻlari	3 101 067
3	**Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar**	**0**
4	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**28 166 745**
5	**Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarini saqlash**	**0**
6	**Zahira jamgʻarmasi**	**1 671 000**
7	**Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi**	**29 184 753**
8	**Boshqa xarajatlar**	**0**